

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JABBAROVA MALOHAT HAMDAMOVNA

GI DE MOPASSAN VA ABDULLA QAHHOR IJODIDA AYOL TASVIRI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

УДК: 82.09-055.2:[821.133.1Мопассан.06+821.5112.133Qahhor.06]-31

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Jabbarova Malohat Hamdamovna

Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor ijodida ayol tasviri 3

Жаббарова Малохат Хамдамовна

Образ женщины в творчестве Ги де Мопассана и Абдуллы Каххара 21

Jabbarova Malokhat Khamdamovna

Depiction of Woman Image in the Works of Guy de Maupassant and Abdulla
Kahhor 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JABBAROVA MALOHAT HAMDAMOVNA

GI DE MOPASSAN VA ABDULLA QAHHOR IJODIDA AYOL TASVIRI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.1.PhD/Fil1137 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Murodov G'ayrat Nekovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Qarshibayeva Uljan Davirovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Xolmurodov Abduhamid
filologiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «08» iyul soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (415 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «27» iyun kuni tarqatildi.

(2024-yil «27» iyun dagi 24-12 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

F.M.Xajiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida G‘arb va Sharq adabiyoti namunalariidagi adabiy ta’sir masalasi, badiiy asar strukturasi va semantikasi, obrazlar tasviri va talqini, ularning poetikasini qiyosiy nuqtai nazardan o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yanada ortmoqda. Bunday yo‘nalishdagi tadqiqotlar adabiyotlararo jarayonga xos interdiskursivlik, intertekstuallik kabi tamoyillar va badiiy-estetik qonuniyatlarni teranroq anglashga ko‘maklashishdan tashqari, har bir tilda badiiy so‘z san’ati rivoji, adabiy oqimlar o‘rni va taraqqiyoti, milliy mentalitet va xalq ruhiyatining namoyon bo‘lishi aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida G‘arb va Sharq adabiyotida erishilgan estetik tajribalarni ijodkorlarning obrazlar tanlash va ularni badiiy tasvirlashdagi uslubiy yaqinligi misolida asoslash o‘zaro adabiy ta’sirga aloqador nazariy qarashlarni boyitishi jihatidan muhim hisoblanadi. Bunda fransuz va o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan adiblari – Gi de Mopassan hamda Abdulla Qahhorning roman va hikoyalarida ham ayol idealini tasvirlashda mushtarakliklar borligi alohida diqqatni tortadi. Barcha xalqlar adabiyotida milliy dunyoqarash, hudud, madaniyatga muvofiq poetik talqin etiladigan ayol obrazi tasviri poetikasidagi umumiy va xususiy jihatlarni belgilab ko‘rsatish imkonini beradi.

Mamlakatimiz Mustaqillikka erishgandan keyin boshlangan ma’naviy tiklanish jarayoni o‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida qiyosiy o‘rganishni taqazo etadi. Shu orqali jahon va o‘zbek adiblari ijodidagi umuminsoniy g‘oyalar talqiniga xos tipologik xususiyatlar chuqur ochib beriladi. Qolaversa, mamlakatimizda “Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazish”da¹ adabiyotning roli yuksak bo‘lib kelgan. Shu jihatdan adabiyotda ayollar obrazining aks ettirilishi, genezisi, semantikasi va poetikasiga aloqador xususiyatlarni aniqlash ham badiiy matn tahliliga doir yoshlar bilimni yanada chuqurlashtiradi, milliy g‘oyalarni teran idrok etishga undaydi. Bu kabi muhim ilmiy vazifalarning hal qilinishi nazariy va amaliy adabiyotshunoslik ufqlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrda PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeni tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 2-martda PF-5953-son “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonlari va 2021-yil 19-mayda PQ-5117-son “O‘zbekiston

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi hamda O‘zbekiston Yoshlari Forumida so‘zlagan nutqidan. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. – Toshkent: “Tasvir nashriyot uyi”, 2021. – B.52.

Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida mopassanshunoslik yo‘nalishi shakllangan va davom etib kelmoqda. Bu sohada atoqli ijodkorning ona vatani bo‘lgan Fransiyada ko‘pgina muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda Mopassanning hayoti va epik ijodi o‘rganilgan².

Ispaniyaning Valladolid universiteti olimalari Ana Elisabeth Cuervo Vázquez va Rosa Alonso Díaz "Mopassan hikoyasidagi ayollarning ahvoli: “Hayot”, “Azizim” va "O‘lim kabi kuchli" romanlari misolida” nomli tadqiqotda ayollar obrazini o‘rganishgan³.

Pol-Valeri Monpelye-3 universiteti fransuz adabiyoti mutaxassisi Jennifer Ruimi o‘zining “Comment Maupassant est-il perçu dans le monde?” (“Mopassan dunyoda qanday qabul qilinadi?”) nomli asarida mopassanshunoslik bilan shug‘ullanayotgan dunyo olimlari haqidagi Noel Benamy tadqiqotlari to‘g‘risida fikr yuritgan⁴. Polshaning Masarikova universiteti ilmiy xodimi Iva Kouřilová Mopassan ijodini o‘rgangan⁵.

O‘zbekistonda ham mopassanshunoslik o‘z tarixiga ega. Jumladan, 1950 yilda Mopassan tug‘ilganiga yuz yil to‘lishi munosabati bilan “Qizil O‘zbekiston” (hozirgi “O‘zbekiston ovozi”) gazetasida N.Xudtsishvilining “Gi de Mopassan” nomli maqolasi o‘zbek tiliga tarjima qilib bosilgan. Unda Mopassanning hayoti, ijodi, yashagan davri, “Hayot” romani, “Do‘ndiq” hikoyasi haqida qisqacha fikr yuritilgan. 1963 yilda Y.Po‘latov Mopassan ijodi va asarlarining o‘zbekcha tarjimalari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Q.Rasulov, M.Xolbekov maqolalarida ham Mopassan ijodiy merosi, yozuvchi uslubi, asarlarining I.G‘afurov, Parda Tursun, M.Hakim, Z.Isomiddinov, Zumrad

² Alain-Claude Gicquel, Maupassant, tel un météore, Le Castor Astral, 1993 ; Alain-Claude Gicquel, Maupassant, tel un météore, Le Castor Astral, 1993; Armand Lanoux, Maupassant le Bel-Ami, Grasset, 1995 (Armand Lanoux date la lettre de Maupassant à Catulle Mendès d'octobre, 1876; Louis Forestier, Chasse et imaginaire dans les contes de Maupassant, Romantisme, année 2005, volume 35, numéro 129, p. 41-60 [archive] sur le portail Persée; Guy de Maupassant à Tôtes sur le site www.terresdecrivains.com; Armand Lanoux, Maupassant le Bel-Ami, Grasset, 1995; Maupassant, contes et nouvelles, Bibliothèque de la Pléiade, page 1424; Armand Lanoux, Maupassant, le Bel Ami [archive], Grasset, 1995; Maupassant s'offre les services d'une prostituée alors que Paul Bourget l'attend dans le salon du rez-de-chaussée, stoïque : Baron Albert Lumbroso, Souvenirs sur Maupassant : sa dernière maladie, sa mort, Rome, Bocca frères, 1905 (BNF 30846016, lire en ligne [archive]), p. 567; Guy de Maupassant, Au Soleil et autres récits de voyage, Paris, Pocket, 1998; Édouard Maynial La vie et l'œuvre de Guy de Maupassant, page 205, Société du mercure de France, 1906; Marie-Claire Bancquait, « Maupassant et l'argent [archive] », Romantisme, no 40, volume 13, 1983, p. 129-140 sur le portail Persée; Françoise Rachmuhl, Georges Decote, « Analyse littéraire de l'œuvre [archive] » dans Le Horla et autres contes fantastiques, coll. Profil d'une œuvre, Hatier, 2002; Frédéric Martinez, Maupassant, Gallimard, 2012, p. 357.

³ https://doi.org/10.5209/rev_THEL.2012.v27.38927.

⁴ <https://doi.org/10.58282/acta.4359>.

⁵Maupassant se proclame toute sa vie le disciple de Flaubert.

Orifjonova tomonidan amalga oshirilgan tarjimalari xususida fikr yuritilgan. Sh.Minavvarov, B.Yo‘ldoshev kabi tarjimonlar Mopassan hikoyalarini bevosita fransuzchadan o‘zbek tiliga tarjima qilishgan. B.Ermatov XIX asr fransuz realistlik novellalarining o‘zbek tiliga tarjimalariga oid nomzodlik dissertatsiyasida Mopassan novellalari tahliliga alohida e‘tibor qaratgan.⁶

O‘zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qahhor ijodi bo‘yicha ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan⁷. X.Abdusamatov, O.Sharafiddinov, M.Qo‘shjonov kabi taniqli olimlar adibning mahorat qirralarini yoritib berishgan.

Ko‘rinadiki, o‘zbek adabiy tanqidchiligida Abdulla Qahhor hayoti va ijodi, yozuvchi asarlarining badiiy-g‘oyaviy tadqiqiga bag‘ishlangan monografiyalar, dissertatsiyalar, xotira kitoblari va esselar yaratilgan.

Qiyosiy adabiyotshunoslikda H.E.Muxammedova, A.I.Zoirova tadqiqotlari⁸ ayol obrazi tadqiqiga bog‘liqligi jihatidan e‘tiborni tortadi. Biroq bu tadqiqotlarning aksariyati to‘liq milliy istiqbolimizgacha yaratilganligi bois, baribir, ularda ayrim cheklangan tomonlar borligi ko‘zga tashlanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining “O‘zbek adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida o‘rganish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor ijodida ayol obrazlari tasviridagi mushtarak va farqli jihatlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Abdulla Qahhor ijodida Sharq va G‘arb adabiy-poetik tajribalarining uyg‘unligini tadqiq etish;

Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor asarlaridagi ayol tiplarini tasniflash hamda ikkala adib ijodida ayol tasvirining mushtarak va tafovutli xususiyatlarini aniqlash orqali har bir adibning ijodiy individualligini oydinlashtirish;

mazkur adiblar tomonidan badiiy matnda ayolga munosabatning tarixiy, milliy, axloqiy omillarini yoritish;

janr (hikoya, roman) imkoniyatlari va qahramon tasviri muammosini ma‘lum bir asarlarning tipologik, qiyosiy tadqiqi asosida o‘rganish;

har bir adibning ayol obrazini tasvirlashdagi badiiy mahorat qirralarini ochib berish va shu asosda ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish;

tadqiqot obyektidagi asarlarni qiyosiy-tipologik o‘rganish asosida ayolga feministik munosabatning mushtarak va farqli xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Gi de Mopassanning “Hayot”, “Azizim”, Abdulla Qahhorning “Sarob”, “Qo‘shchinor chiroqlari” romanlari hamda shu ikki yozuvchining bir nechta hikoyalari tanlab olindi.

⁶ <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/gi-de-mopassan-hikoyalar.html>

⁷ Qo‘shjonov M. Mohiyat va badiiyat. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1977; Xolbekov M.N. Frantsuzskaya xudojestvonnaya proza v perevodax na uzbekskiy yazyk (istoriya i perevodcheskiy opyt): Avtoref. diss... kand. filol. nauk. – Toshkent, 1982; Ermatov B. Frantsuzskaya realisticheskaya novella XIX veka v perevode na uzbekskiy yazyk: Avtoref. diss... kand. filol. nauk. – Toshkent, 1991.

⁸ Muxammedova H.E. Charlz Dikkens asarlarida ayol xarakteri tipologiyasi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 54 b.; Zoirova A.I. Frantsuz feminist adibalar asarlari tarjimasining ginokritik tadqiqi (Jorj Sand va Jermena de Stal asarlari tarjimasi misolida): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 51 b.

Tadqiqotning predmetini Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor ijodida ayol obrazlari tasviri tipologiyasi, individual uslub va badiiy mahorat tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, tasniflash, intertekstual, lingvopoetik, analitik tahlil, feministik yondashuv hamda qisman semiotik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Gi de Mopassan va Abdulla Qahhorning roman hamda hikoyalarida ayol idealining ifodalanishidagi uyg'un va farqli jihatlar ochib berilgan, ikkala ijodkorning ayol haqidagi estetik va ijtimoiy ideali mohiyatini oydinlashtirilish orqali adabiyotda "ideal inson" kontseptining ifodalanish tarixi yoritilgan;

mazkur adiblarning ayol idealini yaratishdagi poetik mahorati, ijodkorlar dunyoqarashi va voqelikka estetik munosabati tahlillar vositasida dalillangan;

Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor asarlarida tasvirlangan xotin-qizlar obrazi orqali hukmron tuzum mafkurasining ayol tasviri talqiniga ta'sir ko'rsatishi, badiiy asardagi ayol obrazi ifodasida tasvirlangan davrning muhim tarixiy, ijtimoiy, axloqiy muammolari badiiy aks etishi asoslangan;

tarixiy davrga xos ustuvor ijtimoiy, axloqiy xususiyatlarning qahramon xarakteri va taqdiriga ta'siri, milliy hayot tarzi va qahramonlararo munosabatlar qiyosiy tadqiq etilgan, ayolga feministik munosabatning o'xshash va tafovutli jihatlari oydinlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor asarlarida ayollar obrazining hukmron tuzum g'oyasiga muvofiq tarzda o'ziga xos badiiy talqin qilingani isbotlangan;

Gi de Mopassan va Abdulla Qahhorning ayol idealini yaratishda xalq ideallariga tayanganligi, ayol obrazini "estetik ideal" va "ijtimoiy ideal" tarzida tasvirlashgani dalillangan;

har ikkala adibning ayollarga nisbatan hurmat-e'tibori, shu hurmat-e'tiborni badiiy talqin qilish mahorati haqida adabiyotshunos olimlar tomonidan aytilgan fikrlar yanada boyutilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, tasniflash, intertekstual, lingvopoetik, analitik tahlil hamda qisman semiotik kabi aniq yondashuv usullari orqali dalillanganligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olingani, fransuz va o'zbek adabiyoti namunalarini o'zaro qiyoslanishi asosida olingan natijalarning amaliyotda keng qo'llanilganligi va tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli milliy (fransuz, o'zbek) so'z san'atlarida ayol tasviridagi o'xshash va farqli jihatlarni belgilash hamda shu asosda Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor ijodiy merosi fenomenining o'ziga xosligini aniqlashtirish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarining o'zbek tili va adabiyoti, jurnalistika, o'zbek filologiyasi yo'nalishlarida "Zamonaviy o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon", "Hozirgi adabiy jarayon", "Jahon adabiyoti", fransuz filologiyasi yo'nalishida "Fransuz adabiyoti" fanlaridan ma'ruza, maxsus

kurs va seminarlar o‘tishda, shu bilan birga, o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot darslarini o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor ijodida ayol tasviridagi mushtaraklik hamda farqlar bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor asarlarida ayol obrazlari tasviri, ularning ruhiyati, hayot tarzi, fikr-qarashi, dunyoqarashi, orzu-istaklari millat mentalitetiga xos bo‘lgan mantiqiy, lisoniy, madaniy-axloqiy tafakkur zuhuroti ekanligi xususidagi nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 18-yanvardagi 18.01/05-son ma’lumotnomasi). Natijada Gi de Mopassan va Abdulla Qahhor ijodida ayol tasvirining mushtarak va tafovutli xususiyatlarini aniqlash orqali har bir adibning ijodiy individualligi oydinlashtirilib, mazkur adiblar tomonidan badiiy matnda ayolga munosabatning tarixiy, milliy, axloqiy omillari yoritilgan. Har bir adibning ayol obrazini tasvirlashdagi badiiy mahorat qirralarini ochib berish asosida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan;

har ikkala adibning roman hamda hikoyalarida ayol estetik va ijtimoiy ideali muayyan obrazlarda namoyon bo‘lishiga doir ilmiy xulosa va tavsiyalardan Toshkent Fransuz Alyansi tomonidan muntazam o‘tkazilib boriladigan “Club de Conversation” tadbirlar dasturlariga oid trening-mashg‘ulotlarda foydalanilgan (NNT Toshkent Fransuz Alyansining 2023-yil 25-yanvardagi 16-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotga oid ilmiy xulosalar, tavsiyalar va takliflar ushbu seminar dasturini boyitishga hamda uning ilmiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan;

Gi de Mopassan hamda Abdulla Qahhor asarlarida ayol portreti, xarakterining psixologik tasviri, u voyaga yetgan muhit, milliy dunyoqarashi, fikrlash tarzi o‘z-o‘zini boshqarishi va boshqalarga munosabati, nazokati, latofati, atrofida gilarining unga munosabatidagi tipologik va o‘ziga xos jihatlar bo‘yicha olingan xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza” teleko‘rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 13-dekabrda 1/352-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlarda foydalanilgan ma’lumotlar va dissertant bilan o‘tqazilgan suhbatlar teletomoshabinlarning kitobxonlikka qiziqishini oshirishga va ko‘rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 4 ta xalqaro, 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va shartli qisqartmalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 125 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, usullari, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Ayol tasviriga munosabatning axloqiy-ma'naviy va badiiy-genetik asoslari**" deb nomlanib, ikki faslni o'z ichiga olgan. Ilk fasl "*Ayol ideali va uning adabiyotda aks etish tarixi*" deb atalgan bo'lib, unda muayyan tarixiy-madaniy davrdagi axloqiy-ma'naviy qadriyatlarning ayollar obrazi orqali ifodalanishi yoritilgan.

Sharq va G'arb adabiyoti bir-biridan farq qilsa-da, ammo ayol idealini aks ettirishda bir-biriga qarama-qarshi emas. Bunda hatto ular biri ikkinchisini boyitib kelgan.

Badiiy adabiyotda ayollar obrazini aks ettirish, xotin-qizlar obrazini ideal darajada tasvirlash antik davrlardan boshlangan. Dastlabki odamlarning paydo bo'lishi (Adam (Odam Ato) mukammal hayot kechirishi uchun Momo Havvo (Yeva)ning yaratilishi), shuningdek, koinot, samo jismlari (Oymomo), tabiat (Ona Yer) va boshqalar paydo bo'lishi ayollar nomi bilan bog'lanishida ham ayol idealini kuzatish mumkin. Xususan, bu ideallilik ayol ma'budalar-u jangovar ayollar – amazonkalar timsolida yanada yorqin namoyon bo'ladi. Jumladan, dengiz ma'budasi Fetida, hosildorlik ma'budi Dimetra, go'zallik ma'budasi Afrodita, urush va donolik xudosi Afina shular sirasiga kiradi.

Ko'rinyaptiki, insoniyatning go'zallik haqidagi tasavvurlari ko'pincha ayollar bilan bog'langan. Aslida go'zallik – juda keng tushuncha. Unda inson shaxsining nafaqat jismoniy jihatdan, balki axloqiy tomondan ham mukammal, yetuk bo'lishi ko'zda tutiladi. Bunga "Odisseya" dostonidagi shoh Odisseyning xotini vafodor va tadbirkor Penelopa obrazi misol bo'la oladi. Bundan insoniyat ruhi toza, aqli butun, jismi joni sog' insongina haqiqiy go'zal ekanini anglab yetgani seziladi.

Ayrim ijodkorlar ayollarni qahramon sifatida tasvirlay boshladilar. Bunga Ovidiyning "Qahramon ayollar"ini, german qahramonlik eposi "Nibelung"larda Zigfridning xotini Krimxilda akalari uchun o'ch olib, Attilani o'ldirishini misol keltirish mumkin.

Uyg'onish davriga kelib, Dante Aligyeri, Jefri Choser, Uilyam Shekspir asarlarida ayollar bilan bog'liq psixologik holatlar (chin sevgi, erkaklarga ishonchsizlik, qaysarlik, o'z sevgisi yo'lida o'limga ham tayyor turish, tuhmatga uchragan ayollar, hukmdor ayollar obrazi kirib keldi.

Realizm va tanqidiy realizm bosqichida esa ayollarning oilasiga, eriga xiyonati, buzuqligi, riyokor va ikkiyuzlamachiligi ochib tashlandi. Xususan, hamma narsa pul bilan o'lchanadigan burjuaziya sharoitida ayol qahramonning chinakam sevgi, do'stlik, go'zallikka intilishlari befoydaligi yoritildi. Masalan,

ingliz realist yozuvchisi Charlz Dikkensning “Dombi va o‘g‘li” romani (1848) tanqidiy realizm namunasi bo‘lib, unda yirik savdogar Dombi ayollarni odam o‘rnida ko‘rmaydi. Uning fikricha, ayollar korxonaning boyishi uchun xizmat qila olmaydilar.


Ba’zi asarlarda iqtisodiy jihatdan oilasini boqish uchun noiloj fohishalik yo‘liga kirgan qizlar hayoti chizib berilgan. Ko‘pgina asarlarda aynan ayollar nomi sarlavhaga ko‘tarilgani bilan diqqatni tortadi. *Keltirilgan bu kabi dalillar uch narsani ayonlashtirishga xizmat qiladi:*

a) jahon adabiyoti tarixining hamma davrlarida ayollar obrazi tasviriga murojaat qilingan; b) barcha xalqlarda maydonga kelgan adabiyotlarda ayollar obrazi yetakchi obrazlardan birini egallaydi; c) ayollar obrazi har bir davr adabiyoti xususiyatidan kelib chiqib tasvirlangan.

Abdulla Qahhor asarlarida ayol tiplari



Les types féminins dans les oeuvres de Guy de Maupassant



Demak, antik davr adabiyotida ayollar ko‘proq kam-ko‘stsis, ideal ko‘rinishda, ma‘budalar maqomida tasvirlangan bo‘lsa, keyinchalik ijtimoiy jamiyatning bir a‘zosi sifatida ruhiy ta‘sirlarga berilgan, erkaklarga ozor yetkazuvchi, o‘ziga xos kamchiliklarga ega qiyofada ham talqin etila boshlangan.

Badiiy ijod tarixida qadimdan to hozirgacha yaratilgan qaysi bir asarga razm solmaylik, unda ayollarning o‘rni va roliga alohida ahamiyat qaratilgani kuzatiladi. Ayol ideali esa xotin-qizlarning eng oliy istagi, orzusi, yuksaklik sari intilishida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ayol ideali badiiy asarlarda alohida estetik mohiyat kasb etadi.

Kishilarning jamiyat va axloq haqidagi tasavvurlari o‘zgarib turishi bois har bir davr adabiyotidagi ayol estetik ideali ham o‘zaro farqlanib turadi. Ammo hamma davrlarda ham adabiyotning estetik idealida ayollarga odilona munosabat ko‘rsatilmagan. Ularga insonparvarlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish o‘rniga kamsitilgan, haqoratlangan. Ko‘pincha ayollar erining xiyonat qilishidan, xo‘rlashidan aziyat chekkan. Bunday tasvirlar fransuz adibi Gi (to‘liq nomi Anri Rene Alber Gi) de Mopassanning (Maupassant) “Hayot” romanida yorqin tasvirlangan.

Ba‘zi badiiy asarlarda esa yaratilgan ayollar obrazida, ularning xarakteri va qiyofasida hayotiy haqiqat bilan estetik ideal qo‘shilib ketadi. Yozuvchining o‘z estetik idealini hayotiy material asosida yaratilgan xarakterlar tasviri orqali ifoda etishi uning badiiy mahoratini namoyon etadi. Bunda ijodkor o‘zining badiiy niyatini to‘laroq amalga oshirish maqsadida, ko‘pincha, bosh qahramonning ham tashqi ko‘rinishi, ham ichki dunyosi go‘zal bo‘lgan yetuk shaxslar qilib yaratadi. Masalan, yozuvchi Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasidagi Masturani, “Sinchalak” qissasidagi Saidani ham estetik ideal yo‘lida yaratilgan obrazlar desa bo‘ladi. Chunki ular ichki dunyosi nihoyatda go‘zal bo‘lgan ma‘naviy yetuk xotin-qizlar timsolidir.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “*Yozuvchi milliy dunyoqarashining ayol obrazi tasviriga ta‘siri*” deb nomlangan. Bu faslda Gi de Mopassan va Abdulla Qahhorga xos bo‘lgan milliy dunyoqarashning ayol obrazida badiiy in‘ikos topishi tadqiq etilgan.

Ayol xarakteri Gi de Mopassan hamda Abdulla Qahhor asarlarida millat xarakteri, milliy kolorit, xalq dunyoqarashi, urf-odat va an‘analariga mos tarzda ochib berilgan. Har ikkala muallif ayollarning xarakterlarini ochib berishda ijtimoiy muhitning ta‘sirini va xarakterning individual xususiyatlariga ahamiyat bergan. Ularning roman, qissa va hikoyalarida ayol xarakterini ochib berishda, avvalo, milliy xarakter kriteriyalarini yaratishga, ayol xarakterining ijtimoiy belgilari asosida tiplarni aniqlashga alohida yondashilgan. Ularda ayolga bo‘lgan munosabat xotin-qizlarning ijtimoiy faoliyati asosida tahlil qilingan. Ayol xarakteri Gi de Mopassan hamda Abdulla Qahhor asarlarida ayol/oila (uning oiladagi o‘rni va mavqei), ayol/ona (bolalariga munosabati), ayol/xotin (erga munosabati), ayol/jamiyat (jamiyatdagi o‘rni) masalalari orqali yoritilgan. Buning uchun har ikkala muallif ayol xarakterini tasvirlashda turli obrazli iboralardan ko‘p foydalanishgan.

Gi de Mopassanning asarlarida turli yoshdagi xotin-qizlar (“Sovaj xola”, “Marten qizalog‘i”, “Miss Graiett”, “Notanish mahbubam” kabi) obrazi yaratilgan. Uning har qadamda o‘zini sotishga tayyor ayollar (“Ivetta”), bolasi uchun fidoyi

ona obrazi (“To‘y sovg‘asi”, vatanparvar va jasoratli ayollar obrazi aks ettirilgan (“Do‘ndiq”, “Madmuazel Fifi”) hikoyalari dunyoning barcha joylarida haligacha o‘z o‘quvchilariga ega.

A.Qahhor yaratgan ayol obrazlari bir-birini takrorlamaydi. Ularning har biri to‘la ma‘nodagi yangi, original obrazlardir. Saida o‘z davrida kuni paxta dalalarida o‘tgan, yeyishi va kiyinishining mazasi bo‘lmagan, ham ijtimoiy mehnat, ham ro‘zg‘or ishlari orqasida tinkasi qurigan millionlab mehnatkash, tanti o‘zbek xotin-qizlarining umumlashgan obrazi edi.

“Sinchalak” qissasida xalqimizning juda ko‘p milliy xususiyatlari o‘zining badiiy ifodasini topgan. Bu milliylik, ayniqsa, qissaning tilida, personajlarning nutqida, ko‘rinishida yaqqol ko‘zga tashlanandi. Qissada qahramonning o‘sha zamon bilan bog‘liq ayrim kamchiliklari ham ifoda topgan. Bu esa Saidaning sxemalashgan qahramonlardan emasligidan dalolat beradi.⁹

Gi de Mopassan “Do‘ndiq” hikoyasida fransuz milliy qahramoni Janna d’ Ark nomini tilga olish bilan vatanparvarlik u qaysi kasb, qanday ish bilan shug‘ullanmasin, fransuz ayollarining qonida va genida borligini ta’kidlashni ko‘zlagani ayonlashadi.

Ayol xarakteri Gi de Mopassan hamda Abdulla Qahhor asarlarida ayol ismlarining nomlanishi, portreti tasviri, xarakterining psixologik tasviri, u voyaga yetgan muhit, milliy dunyoqarashi, fikrlash tarzi, aqli, bilimi, nutqining o‘ziga xosligi, xatti-harakati, o‘z-o‘zini boshqarishi va boshqalarga munosabati, hayoibosi, nazokati, latofati, go‘zalligi, atrofida gilarining unga munosabati va u haqdagi fikrlari asosida ifodalantirilgan.

Mopassanning “Madmuazel Fifi” hikoyasida ham qahramon va tabiat hodisasi orasidagi aloqadorlikni ko‘rsatuvchi badiiy lavha bor. Bu asarda voqea “Dahshat”-dagi singari tunda bo‘lib o‘tadi. Asar muqaddimasida “kimdir g‘azab bilan sepib tashlagandek shiddat bilan yog‘ayotgan yomg‘ir”¹⁰ tasvirlangan. Tabiiyki, mana shu yomg‘ir va bosqinchilarga bo‘lgan xalq nafrati orasida badiiy-semantik munosabat mavjud.

Fikrimizcha, tahlil etilayotgan asarlar orasidagi bunday o‘xshashlik, adabiy ta’sir natijasi bo‘lmay, balki, oldin aytib o‘tilganidek, badiiy adabiyotning mushtarak, umumtipologik xususiyatlari bilan izohlanadi. Fransuz yozuvchisida yomg‘ir tasviri juda muxtasar, atigi bir necha satrdan iborat. Abdulla Qahhor hikoyasida esa shamol motivi asarning boshidan oxirigacha istifoda etilgan.

“Ayol xarakterida fojaviylik va qahramonona pafos” deb atalgan ikkinchi bob ikki fasldan iborat. Uning *“Ayol tasvirida fojaviylik”* faslida Gi de Mopassan va A.Qahhor ijodidagi ayol obrazlarida fojaviylik va bu hodisaning omillari haqida fikr yuritilgan.

Ayrim ayollar xarakterida insoniy illatlar aks etadiki, bu ayol tasviridagi fojaviylikdan darak beradi. Shuning uchun ba’zi adiblar salbiy tipga mansub xarakterlarni o‘z ijodida xuddi yaxlit muammo sifatida talqin etishgan. Buni fransuz adibi Gi de Mopassan hamda o‘zbek adibi Abdulla Qahhor ijodida ham kuzatish mumkin.

⁹ Sultonova M.M. Abdulla Qahhor uslubining ba’zi masalalari. – T.: Fan, 1967. – B.100.

¹⁰ Ги де Мопассан. Собрание сочинений в семи томах. Том 1. - Москва: Издательство «Правда», 1977.- Ст.400.

Gi de Mopassanning “Hayot” romanida ojiza ayol xarakteri namoyon etilgan. Qahramon hayotidagi og‘ir damlar (eri, ota-onasining o‘limi) ba’zida uni holdan toydirib qo‘yadi. Shunga qaramay, ayol murakkab va jiddiy muammolarning yechimini topishga majbur. Bunday muammolarga yechim topishda uning kitoblar o‘qish orqali yiqqan tajribasi, oqsoch dugonasi maslahatlari va ko‘rsatgan yo‘l-yo‘riqlari qo‘l keladi.

Mopassanning “Hayot” romanida ayol xarakteri tasvirlanar ekan, avvalo, obraz dinamikasi davriy bosqichlarda ko‘zga tashlanadi. Bular:

1. Qahramonning qizlik davri.	2. Kelinchaklik davri.
3. Onalik davri.	4. Kundoshlik davri.
5. Xiyonatga uchrashi.	6. Bevalik davri.
7. Qaynonalik davri.	8. Buvilik, keksalik davri.

En décrivant le personnage féminin du roman “La Vie” de Maupassant, tout d'abord, la dynamique du personnage est visible par étapes périodiques. Ceux-ci sont:

1. La période de virginité de l'héroïne	2. La période de la féminité
3. Période de maternité.	4. Période de plusieurs mariages de son mari.
5. La trahison	6. Période de veuvage
7. Période de belle-mère.	8. Grand-mère, la vieille

Ayollar, odatda, go‘zal hilqat sifatida ta’riflanadi. Ammo ular bilan bog‘liq fojiviylikni ham kuzatish mumkin. Bu esa asarlarda ikki xil ifoda etiladi:

birinchisi – ayolning o‘z xatti-harakati, xarakter-xususiyati bilan bog‘liq fojiviylik;	ikkinchisi – ayolga eri, qaynonasi, ba’zan o‘z farzandi yoki boshqa birovlar tomonidan yetkazilgan jabru jafodan kelib chiqqan fojiviylik.
--	---

Mopassanning “Hayot” va A.Qahhorning “Sarob” romanlarini muqoyasa etganimizda, ikki badiiyat namunasi orasida birmuncha yaqin va farqli jihatlar borligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ikki romanning har biri mustaqil badiiy-estetik qurilma bo‘lib, alohida voqea tizimi, qahramon va personajlar guruhi, xronotop olamiga ega.

“Hayot”da XIX asrning birinchi yarmidagi Fransiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, urf-odatlar va axloq tarzi, oila, muhabbat muammolari o‘z badiiy ifodasini topgan.	“Sarob”da esa XX asrning 20-30 yillarida sovet mustabid tizimi tarkibidagi o‘zbek jamiyatidagi hayot tarzi tasvirlangan.
---	---

Bularning barchasi mazkur romanlarning badiiy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib turibdi. Shu bilan birga, bu asarlar qiyosiy tarzda o‘rganilganida, ular orasida ma’lum bir darajada mushtaraklik mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday aloqadorlik avvalambor ikki roman syujetida o‘z ifodasini topgan ayol tasvirlarida

ko‘rinadi. To‘g‘ri, “Hayot” va “Sarob”dagi Janna va Munisxon tashqi qiyofa, xarakter, hayot tarzi nuqtai nazaridan bir-biridan jiddiy farq qiladilar. Shunga qaramay, bu ikki epik obrazni ular taqdiridagi fojiviylik bog‘lab-yaqinlashtirib turadi. Mopassan “Hayot” romanida Janna obrazini quyidagicha tasvirlaydi: “...Ko‘zlari zangori, Gollandiyada ishlangan fayans idishlardagi odamchalarning ko‘zlari singari to‘q zangori edi.”¹¹

“Hayot”dagi Janna taqdiridagi fojiviylik. Badavlat oilada tug‘ilib yaxshi ta‘lim va tarbiya olgan Janna xonadonda yakkayu yolg‘iz farzand. Ota-onasi butun mehrini sevimli qiziga bag‘ishlaganlar. Uning hayotidagi butun baxtsizlik turmushga chiqqandan keyin boshlanadi. Uni vikont de Lamar degan yosh yigitga uzatadilar. Ammo ko‘p o‘tmay ma‘lum bo‘ladiki, vikont xotinboz, ochko‘z, munofiq inson ekan. Shunga qaramay, yosh juvon taqdirga tan berib u bilan yashashni davom ettiradi. Oradan ma‘lum vaqt o‘tgach, vikont grafinya de Furvil bilan “sevgi” aloqasida bo‘lgani uchun bu ayolning eri tomonidan o‘ldiriladi. Beva qolgan ayol butun muhabbatini yolg‘iz farzandi - Polga bag‘ishlaydi. Ammo farzandi ota izidan borib undagi isrofgarlik, ayshu ishrat, betayinlik yo‘lini davom ettiradi. Uning sayoqligi tufayli Janna otasidan qolgan mulklaridan birin-ketin ayrilib, xonavayron bo‘ladi. Ayol qismatidagi bunday qiyinchiliklar biz yuqorida qayd etib o‘tgan eri, keyin farzandi tomonidan yetkazilgan jabru jafodan kelib chiqqan fojiviylik ekanligi ayonlashadi.

“Sarob”dagi Munisxon taqdiridagi fojiviylik Jannanikidan ortiq bo‘lsa ortiq, ammo kam emas. U ham mashhur va boy-badavlat oilada o‘sib ulg‘aygan. Janna singari yaxshi ta‘lim olgan. Hayot qiyinchiliklarini ko‘rmay o‘sgan. U tengdoshi-ko‘rkam va iste‘dodli Rahimjon Saidiy bilan suhbatlashishni, u bilan vaqt o‘tkazishni yaxshi ko‘radi, shu bilan birga bu kambag‘al hamda yetim yigit bilan turmush qurishni o‘ylab ham ko‘rmaydi. Ammo shunga qaramay, uning Saidiyga mayli borligi ruhiyati, xatti-harakatlaridan sezilib turadi. Munisxonning korchalon va boyvachcha akasi singlisining shu maylini sezib, makkorona yo‘llar orqali Munisxonning ko‘nglini Saidiydan sovuta boshlaydi. Natijada asta-sekin o‘z maqsadiga erishib, singlisini Muxtorxon degan nufuzli, puldor, biroq badbashara, insoniy fazilatlaridan yiroq kimsaga uzatishga erishadi. Munisxon to‘ydan keyin naqadar katta xatoga yo‘l qo‘yganini anglab yetadi. Ammo o‘z xatosini tuzatishga kuch, iroda topa olmaydi. Oqibatda hayotda to‘g‘ri yo‘ldan og‘ib ichkilik, fahshga beriladi. Oqibat, o‘z joniga qasd qilib dunyodan ko‘z yumadi. Ko‘rinyaptiki, fe‘l-tabiat, ruhiyat, milliy psixologiya, yashash shart-sharoiti nuqtai nazaridan bir-biridan jiddiy farq qilgan ikki qahramonni shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi baxtsizlik, shaxs, ayol fojiasi bog‘lab-biriktirib turadi. Abdulla Qahhor “Sarob”da Munisxon fojeasini quyidagicha bayon etadi: “Bu kungacha ko‘z yoshi to‘kdim. Baribir bundan keyin ham to‘kar edim. Qiz tuqqan onalar, bolalaringizni tiriklay ko‘mingiz, qiyomatda sizga domangir bo‘lmasin, demoqchi bo‘lib qalam olgan edim, biroq quvnoq qizlar, quvnoq xotinalarning kulgi tovushlari qulog‘imga eshilib ketdi. Yo‘q, qiz emas, Munisxon tuqqan onalar bo-lalarini tiriklay ko‘msinlar. Olam to‘la baxt, faqat men baxtsiz edim”.¹²

¹¹ Gi de Mopassan. “Hayot” roman. “Azizim” roman. Novellalar. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1987.-B.15.

¹² Abdulla Qahhor. Asarlar. Besh jildlik. Birinchi jild. “Sarob”. Roman. Hikoyalar. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1987.-B.241.

Shuning uchun jahon adiblari ijodida ayollar hayoti bilan bog‘liq fojiviylik yoritilgan asarlar alohida silsilani tashkil qiladi.

Ikkinchi bobning *“Ayol xarakterida qahramonona pafosning tajassumi”* nomli ikkinchi faslida ikki adib asarlarida ayol xarakterida qahramonlik pafosining ifodasi tadqiq etilgan.

Gi de Mopassanning Zumrad Orifjonova tomonidan tarjima qilingan *“Asirlar”* sarlavhali hikoyasida fransuz juvonining olti nafar pruss (nemis) askarini asir olishi tasvirlangan. Bunda Lavin janoblari pruss avangardini asir olgani uchun orden, otryad a‘zosi semiz nonvoy esa jang maydonida yarador bo‘lgani uchun harbiy medal olib, Bertina garchi mukofotsiz qolgan bo‘lsa-da, asosiy qahramon u edi.

Gi de Mopassanning Zumrad Orifjonova tomonidan tarjima qilingan yana bir mashhur hikoyasi *“Do‘ndiq”*da o‘zi fohisha bo‘lsa-da, o‘ta vatanparvar ayol obrazi aks ettirilgan. Bunda aslida haqiqiy hayosiz do‘ndiq emas, balki o‘zlarini baland tutgan, *“asl”* fransuzlarmiz, deb lof uruvchi Luazo, Karre-Lamadon va de Brevillardir. Chunki ular o‘z manfaati oldida vatanfuruslik qilishdan ham tap tortmaydigan hayosiz ayollardir.

Hikoyada ayollarning ichkilik ichishi tasvirlanganki, bunday tasvir o‘zbek xotin-qizlari tasvirida kam kuzatiladi. Masalan, A.Qahhorning *“To‘yda aza”* hikoyasida: *“...keksa domla uylanayotgan yosh juvon (kelin) birpas boshiga oq ro‘mol yopinib o‘tiribdi-yu, bir-ikki ryumka ichgandan keyin, alamiga chiday olmay, o‘yinga tushadi.”*¹³

Fohisha bo‘lsa-da, o‘z vatanining dushmanlariga murosasiz jasur qiz obrazi Gi de Mopassanning *“Mademuazel Fifi”* hikoyasida ham tasvirlangan. Bu novella syujetida tanqidiy realizm yetakchi rol o‘ynaydi.

Novellada fohisha qiz Rashel fransuz ayollarini haqorat qilib: *“Fransiyaning butun xotinlari ham bizniki!”* degan, Fransiya yerini toptashdan zavqlangan poruchik Ottoning gaplariga chiday olmay, stoldagi kumush pichoqni uning bo‘g‘ziga sanchib o‘ldiradi va qochib qoladi. Bir qancha vaqt o‘tgach, uning qahramonlarcha qilgan ishiga shaydo bo‘lgan bir vatanparvar uni fohishaxonadan olib chiqib, keyinchalik unga uylanadi. U ham boshqa ko‘p xonimlardan qolishmaydigan xonim bo‘lib qoladi.

Bunda adib Gi de Mopassan ayolning fazilatlarini qadrlash bilan birga, undagi aql-zakovatga, xususan, vatanparvarlik tuyg‘usiga tan beradi. Ayol xarakteridagi fazilatlar va aql-zakovat esa asarda o‘ziga xos ayol idealini vujudga keltirgan. Biroq fohisha taqdiri bunday ayol timsolining murakkab ko‘rinishini ifodalaydi.

Fransuz tilidan Abdumurod Ko‘chiboev tarjima qilgan *“Sadoqat qurboni”* hikoyasi qahramoni Maymoq kampir haqida Mopassan shunday yozadi: *“Bu ayol oliy darajada tarixiy jasorat ko‘rsata oladigan qahramonlar xilidan ekanligiga ishonchim komil. Bu uning umridagi yagona va oxirgi muhabbati edi. U bokiraligicha olamdan ko‘z yumdi. Bu jafokash ayol, xudoning eng mo‘min bandasi va o‘z sadoqatining begunoh qurboni bo‘ldi. U bilan cheksiz faxrlanaman”*. Hikoyada quyonyurak yigit ishdan haydalmaligi uchun cherdakdan sakrab qochishga ko‘ngan qiz oyog‘ining uch joyidan sinishi tufayli umrbod cho‘loq bo‘lib, maymoq laqabini olgan edi.

¹³ Qahhor A. To‘yda aza. // Qo‘shchinor chiroqlari. Asarlar. Besh jildlik. 2-jild. Oman. Hikoyalar. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. – B.315.

A.Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasidagi kasal, yosh juvon Masturaning qahramonlarcha og‘ir xastalikni yengishi tasvirlangan. Ayolning hayotga bo‘lgan kuchli intilishi uni o‘lim changalidan saqlab qoladi. Qolaversa, uning mehribon, vafolor eri Akramjon unga o‘limni yengishida madadkor bo‘ladi. Erining bunchalik mehrini qozonishiga esa Masturaning o‘zi, xushxulqligi sababdir.

Mastura oddiy ayol emas, u o‘ta kuchli va irodali inson ekanini oson payqash mumkin. Yozuvchi Masturani ishda ko‘rsatmagan, uning ishlab chiqarishdagi, ijtimoiy hayotdagi biroi-bir g‘alabasi yoki yutug‘ini tasvirlamagan bo‘lsa-da, hikoyada ayol idealini yarata olgan. Mastura – o‘zbek xotin-qizlariga xos eng yaxshi fazilatlarini o‘zida mujassamlantirgan mard ayol obrazi. Hikoya qahramonlaridan biri aytganidek, u “temir jonli” ayol sifatida namoyon bo‘ladi.

